TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 9-sentabr | 252-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 6 sentabrdagi «Viloyatda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy va energetika sohasi obyektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi hamda ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash to‘g‘riisda”gi 362-10-0-F/24 farmoyishi ijrosi haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 6 sentabrdagi 362-10-0-F/24 farmoyishi ijrosini taminlashda “Mahalli davlat hokimiyti to’g’risida” gi qonunining 6- va 25- moddalariga muvofiq

1.Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 6 sentabrdagi 362-10-0-F/24 farmoyishi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash, aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha dolzarb muammolarni hal etish ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar 1-ilovaga muvofiq;

iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash, aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha dolzarb muammolarning hal etilishini ta’minlash va tahliliy ishlarni olib borish bo‘yicha tuman ishchi guruhi shtabining tarkibi va vazifalari 2 va 3 ilovalarga muvofiq tasdiqlansin;

ichimlik suvi ta’minoti ob’ektlari va uskunalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash parametrlari 4-ilovaga muvofiq;

elektr tarmoqlari va qurilmalarini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash parametrlari 5-ilovaga muvofiq;

gaz ta’minoti ob’ektlari va qurilmalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash parametrlari 6-ilovaga muvofiq;

Yer uchastkalarida joylashkan aholi xonadonlari gaz taminoti 2024-yil ikki bosqichli tizimga o’tkazish maqsadli ko’rsatkichlari 7-ilova muvofiq;

kuz-qish mavsumi uchun ko‘mir mahsulotlari zaxirasini yaratish parametrlari hamda ijtimoiy soha ob’ektlariga kuz-qish mavsumi uchun ko‘mir mahsulotlari yetkazib berish parametrlari 8-ilovaga muvofiq;

ijtimoiy soha ob’ektlarini mukammal va joriy ta’mirlash parametrlari 9-ilovaga muvofiq;

iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash, aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha dolzarb muammolarni hal etish ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha maxallalarga va ijtimoiy soha ob’ektlariga biriktirilgan mutasaddi viloyat tashkiloti rahbari 10-ilovaga muvofiq;

ko’p kvartirali uy-joy fondini mukammal va joriy tamirlash parametrlari 11-ilovaga muvofiq tastiqlansin.

3. Tuman ishchi guruhi (Rixsiev, Mirsagatov)ga zarur hollarda ushbu farmoyish bilan tasdiqlangan parametrlarga mahalla raisilarining takliflari asosida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritsh huquqi berilsin.

4. Mazkur farmoyishda belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini ta’minlash va nazorat qilish bo‘yicha quyidagi tartib o‘rnatilsin:

a) ushbu farmoyishning 17-ilovasida belgilangan hokim mas’ulligidagi shtab 2025 yil 1 martga qadar tunu-kun faoliyat ko‘rsatadi;

b) tuman ishchi guruhi:

uch kun muddatda tegishli tashkilot va idoralar rahbarlari maxallada amalga oshiriladigan ishlarni mahallalar kesimida belgilab bersin;

tumanda aholining murojaatlarini qabul qilish va ularning tezkor ko‘rib chiqilishini ta’minlash bo‘yicha ishchi guruhi shtabida tunu-kun ishlaydigan aloqa tizimini ishga tushirin;

iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari va uy-joy fondini kuz-qish mavsumiga tayyorlash, iste’molchilarga elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gaz, ko‘mir mahsulotlari, issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirib borsin;

har haftada ishchi guruh bilan maxallalarda ijtimoiy soha ob’ektlarini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasidagi ishlarning holatini o‘rganib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rib borsin;

2024/2025 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati yuzasidan har hafta ykuni bilan yig‘ilish o‘tkazib, mas’ul tashkilot va idoralar, korxonalar rahbarlarining hisobotlarini hamda mahalla raislarining axborotlarini eshitsin;

tumandagi mahallalarda xalq bilan muloqot tarzida o‘tkaziladigan uchrashuvlarda mazkur farmoyish bilan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni talafotsiz o‘tkazish bo‘yicha belgilab berilgan parametrlarning bajarilishi yuzasidan aholiga hisobot berib borish tizimini yo‘lga qo‘ysin;

joylarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni betalafot o‘tkazish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan tuman shtabiga kunlik ma’lumottaqdim qilib boradi hamda ijtimoiy soha ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondida aniqlanayotgan kamchiliklar, aholidan kelib tushayotgan murojaatlarning tezkor ravishda hal etish choralarini ko‘rib borsin;

tasdiqlangan parametrlarni bajarishga mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarmagan yoki qoniqarsiz bajargan taqdirda, ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari qo‘llash bo‘yicha takliflar kiritib borsin.

5. Tuman tashkilot rahbarlari va ishchi guruhlar a’zolariga mahallalardagi ijtimoiy soha ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha belgilangan parametrlar va chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash yuzasidan shaxsiy mas’uliyat yuklansin.

6. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari R.Rihsiev , Tuman hokimining o’rinbosari I.Saidikarimov birgalikda :

Zaruriyatdan kelib chiqib, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Ubaydullaeva) va Tuman tibbiyot birlashmasi (Asadov) tomonidan taqdim etilgan asoslantirilgan hisob-kitoblarga muvofiq ijtimoiy soha ob’ektlarida kuz-qish mavsumi uchun ko‘mir mahsulotlariga talabdan kelib chiqib, ushbu tashkilotlarning markazlashgan hisob raqamlariga ko‘mir sotib olish va ko‘mir tashish uchun zarur mablag‘larni ajratish choralarini ko‘rsin;

2024 yil 20 sentabrga qadar ushbu farmoyishda belgilangan tadbirlarning loyiha-qidiruv ishlari xarajatlarini mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyaga takliflar kiritsin;

7. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Oqiljonovga:

o‘n kun muddatda 2024/2025 yillar qish-bahor mavsumiga g‘amlanadigan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash joylari ro‘yxatini (dislokatsiyasini) tasdiqlasin hamda ularni g‘amlash parametrlarining o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Tuman elektr tarmoqlari korxonasi (Usmoxo‘jaev) “Hududgaz Toshkenttumangaz” gaz ta’minoti filiali (Mirzaxmedov) O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (Abdullaev) mahalla fuqarolar yig’ini raislari, mutasaddi korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

elektr va tabiiy gaz qurilmalarini ta’mirlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash, issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga yoqilg‘i resurslarini uzluksiz yetkazib berish choralarini ko‘rsin;

aholiga, ijtimoiy soha ob’ektlariga, boshqa toifadagi iste’molchilarga, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondiga hamda boshqa toifadagi iste’molchilarga zarur miqdorlarda energetika resurslarini yetkazib berish bo‘yicha muntazam ravishda «mahallabay» tizimida o‘rganishlar olib borib, ajratilgan resurslarni yetkazib berish choralarini ko‘rsin.

9. Tuman ishchi guruhi (Rixsiev, Mirsagatov) sektorlar rahbarlari bilan birgalikda:

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni betalafot o‘tkazish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan viloyat ishchi guruhi shtabiga kunlik ma’lumot taqdim etib borilishini ta’minlasin;

tuman ishchi guruhi a’zolari bilan birgalikda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni betalafot o‘tkazish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsin hamda mahalliy ro‘znoma va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam ravishda “ochiq muloqot” hamda brifinglar o‘tkazib borilishini ta’minlasin.

10**.** Tuman sektor rahbarlari – iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash tayyorlash bo‘yicha parametrlar va chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini hamda aholidan kelib tushayotgan murojaatlarbo‘yicha dolzarb muammolarning o‘z vaqtida hal etilishini ta’minlash;

11.Toshkent tumani hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Mirsagatov:

– mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini, ichimlik suv ta’minoti va oqova suv ob’ektlarini kuz-qish davriga tayyorlash, jumladan, ularni ta’mirlash va ichki muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini soz holatga keltirish bilan bog‘liq ishlarning puxta va sifatli bajarilishini nazorat qilish;

– kuz-qish davrida aholi va ijtimoiy soha ob’ektlariga elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gazni uzluksiz yetkazib berish bo‘yicha belgilangan parametrlar bajarilishini hamda iste’molchilar tomonidan energiya resurslaridan oqilona va tejamli foydalanilishini nazorat qilish;

12.Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi (Maxamadjonov) – mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uylarni kuz-qish davriga tayyorlash jarayonida dudburonlar va ventilyatsiya tizimlarini ta’mirlash, izolyatsiya qilish hamda tozalash ishlarining o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini nazorat qilish;

13.Tuman Xalq qabulxonasi N.Muxamedov hamda O‘zbekiston Mahallalar uyushmasining tuman bo‘limi M.Abdullaev– aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha dolzarb muammolarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan o‘z vaqtida va sifatli hal etilishini nazoratini taminlasin.

14. Toshkent tuman hokimligi matbuot kotibi (Ismailova), “Diyor ovozi” tuman gazetasi bosh muharriri (Matyoqubov)ga:

tuman ishchi guruhi bilan birgalikda mahallalarda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy va energetika sohasi ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va hamda ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash, aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha dolzarb muammolarni hal etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

15. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Toshkent tumanida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash, aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha dolzarb muammolarni hal etish ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha

KOMPLEKS ChORA-TADBIRLAR

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Tashkiliy chora-tadbirlar			
1.	2024/2025 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha hududlarni **«qizil»**, **«sariq»** va **«yashil»** hududlarga ajratish. Bunda aholi punktlarini **«qizil»** hududga kiritishda: **elektr energiyasi** va **tabiiy gaz** ta’minotida muammolar mavjud; ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari moddiy-texnika bazasi va **moliyaviy holati «og‘ir»**; Xalq qabulxonasiga kommunal xizmatlar yuzasidan **ko‘plab murojaatlar** tushgan; **olis va borish qiyin bo‘lgan hududlar** nazarda tutiladi.	bir hafta muddatda	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, Tuman elektr ta’minoti korxonasi (Usmonxo‘jaev), “Toshkenttumangaz” gaz ta’minoti bo‘limi

2.	Aholi yashash punktlarida: ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, shu jumladan kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari hamda ijtimoiy soha ob’ektlarining **issiqlik ta’minoti qozonxonalari, muhandislik-kommunikatsiya ob’ektlari va jihozlarini** ta’mirlash; iste’molchilarga **suyultirilgan gazni** (ovqat pishirish uchun) barqaror yetkazib berish, shuningdek, chekka hududlarda yashovchi aholini **ichimlik suvining muqobil manbalari** (jumladan, tashib keltiriladigan suv) bilan ta’minlash bo‘yicha mas’ul ijrochilar va bajarish muddatlarini aniq belgilagan holda **chora-tadbirlar rejasini** ishlab chiqish va amalga oshirish.	2024 yil 1 oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, Gaz ta’minoti bo‘limi “Suv ta’minoti” AJ Toshkent tuman filiali (Niyazov), “Musaffo obi xayot” MChJ
3.	Iqtisodiyot tarmoqlarini 2024/2025 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan **ko‘mir yetkazib berish** bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish.	2024 yil 1 oktabr va mavsum davomida	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, MMTB (Ubaydullaeva), TTB (Asadov)
4.	Maishiy gazdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan **favqulodda hodisalarning oldini olish** bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2024 yil 1 oktabr va mavsum davomida	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, Gaz ta’minoti bo‘limi Toshkent tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi

5.	Ishlab chiqarish va yetkazib berish balansini hisobga olgan holda **2024 yil oktabr** oyidan **2025 yil aprel** oyiga qadar bo‘lgan davr mobaynida ulgurji iste’molchilar va aholiga **tabiiy gaz yetkazib berish** bo‘yicha kelishilgan **oylik jadvalni** ishlab chiqish va amalga oshirish.	2024 yil 1 oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, Gaz ta’minoti bo‘limi
II. Yoqilg‘i-energetika majmuasini barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar			
6.	Asosiy va yirik muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda texnologik uskunalarni mukammal va joriy ta’mirlash, jumladan **elektr uzatish tarmoqlari** va **transformator punktida** ta’mirlash ishlarini amalga oshirish. Gaz ta’minoti bo‘limi tomonidan quvurlarni rekonstruksiya qilish. Shuningdek, **GTNlarni** taftish qilish, gaz quvurlarini bosim ostida sinash va tozalash, yer osti gaz quvurlarini maxsus priborlar yordamida tekshirish hamda quvurlarni bo‘yash ishlarini bajarish.	2024 yil 1 oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, Tuman elektr ta’minoti korxonasi (Usmonxo‘jaev), Gaz ta’minoti bo‘limi
7.	Tasdiqlangan oylik jadvalga asosan kuz-qish mavsumida iste’molchilarga, shu jumladan, joriy yil **oktabr-dekabr** oylarida **suyultirilgan gaz** yetkazib	2025 yil 1 yanvar	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, Gaz ta’minoti bo‘limi

	berish.		
III. Mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar			
14.	Tumandagi ko‘p kvartirali uy-joy fondini ta’mirlash ishlari bo‘yicha haqiqiy ehtiyojni hisobga olgan holda joriy yilda **moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lgan ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchi tashkilotlar** va **uy-joy mulkdorlari shirkatlarini** qo‘llab-quvvatlash uchun tegishli manbalardan talab etiladigan mablag‘larning aniq miqdorlarini belgilash.	zaruratga ko‘ra	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Abduraxmonov)
15.	Ko‘p kvartirali uylar, bino va inshootlarning yong‘inga qarshi xavfsizlik texnik me’yorlariga mosligini tekshirish, ko‘p kvartirali uylardagi **dudburonlarni va shamollatish tizimlarini ta’mirlash**, ularni **izolyatsiya qilish va tozalash** ishlarini amalga oshirish.	2024 yil 1 oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, Toshkent tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi
16.	Markazlashtirilgan issiqlik ta’minotiga ulangan va ichki tizimlari nosoz bo‘lgan ko‘p kvartirali **uylarning nosoz ichki tizimlarini tiklash** bo‘yicha sektorlar kesimida **manzilli dasturni** tasdiqlash va amalga oshirish.	2024 yil 1 oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov
17.	Mahallalardagi yakka	2024 yil	Tuman hokimining o‘rinbosari

	tartibdagi va ko‘p kvartirali uylarda **elektr energiyasidan xavfsiz foydalanish** qoidalariga rioya etilishi holatini o‘rganish va Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi hududiy bo‘linmalari bilan birgalikda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.	1 oktabr	S.Mirsagatov, Toshkent tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi
IV. Ichimlik suvi ta’minoti ob’ektlarini tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar			
18.	«Suv taminoti» AJ Yangibozor tuman filiali tomonidan **ichimlik suvi tarmoqlari** va **nasos uskunalarini** mavsumga tayyorlash.	2024 yil 1 oktabr	“Suv ta’minoti” AJ (Niyazov), Musaffo obi xayot
V. Ijtimoiy soha ob’ektlarini tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar			
19.	**Ijtimoiy soha ob’ektini** kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo‘yicha **kompleks tadbirlarni** amalga oshirish.	2024 yil 1 oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov
20.	Budjet tashkilotlarining ko‘mirda ishlaydigan qozonxona va isitish tizimlari kuz-qish mavsumiga tayyorgarligini o‘rganib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha **chora-tadbirlar rejasini** ishlab chiqish va amalga oshirish. Ijtimoiy soha ob’ektlari uchun **qo‘shimcha talab etiladigan ko‘mir xarajatlarini** aniqlash	2024 yil 1 oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, tuman tibbiyot birlashmasi (Asadov), tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Ubaydullaeva),

	va qoplab berish choralarini ko‘rish. Bunda ijtimoiy soha ob’ektlari uchun qo‘shimcha talab import ko‘mir hisobidan qoplanadi.		
VI. 2024/2025 yillar qish-bahor mavsumi uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini g‘amlash bo‘yicha chora-tadbirlar			
21.	Moliyaviy ahvoli barqaror, **qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash** maqsadida ularga bank kreditlari o‘z vaqtida ajratilishi va ularning maqsadli ishlatilishini ta’minlash.	doimiy ravishda	Tuman tijorat banklari
22.	**Muhtoj oilalarni** kuz-qish mavsumi uchun zarur **oziq-ovqat va dori vositalari zaxiralari** bilan ta’minlash.	2024 yil 1 oktabr	Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (Abdullaev), tuman tibbiyot birlashmasi (Asadov)
VII. Chora-tadbirlar bajarilishini nazorat qilish			
23.	**Ijtimoiy soha** ob’ektlarida: mavjud qozonxona va qozonlarning holatini xatlovdan o‘tkazib, ularning kuz-qish mavsumiga tayyor holatga keltirilganligini o‘rganish va dalolatnoma asosida mavsumga ishga tushirish; dastur doirasida qozonxona va qozonlarning ta’mirlash holatini o‘rganish va ularning sifatli foydalanishga topshirilishini tashkil qilish.	2024 yil oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosarlari S.Mirsagatov, I.Saydikarimov

24.	**Elektr tarmoqlari** va transformator punktlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning monitoringini yuritish va sifatli foydalanishga topshirilishini tashkil qilish.	2024 yil sentabr — oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari S.mirsagatov, Tuman elektr ta’minoti korxonasi (Usmonxo‘jaev)
	Elektr energiyasi ta’minotidagi yuqori yuklama jarayonlarida aholiga bir maromda elektr energiyasi yetkazib berilishini qat’iy nazoratga olish.	mavsum davomida	
25.	**Tabiiy gaz** tarmoqlari, gaz taqsimlash punktlari va boshqa jihozlarni ta’mirlash, bo‘yash, taftishdan o‘tkazish, rostlash va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning monitoringini yuritish va sifatli foydalanishga topshirilishini tashkil qilish.	2024 yil sentabr — oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, Gaz ta’minoti bo‘limi
	Mavsum davomida tabiiy gaz yetkazib berish ishlarini qat’iy nazorat qilib borish.	mavsum davomida	
26.	**Uy-joy fondini** kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo‘yicha ko‘p kvartirali uylarda **7 ta** yo‘nalish bo‘yicha amalga	2024 yil sentabr — oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov

	oshirilayotgan ishlarning haqqoniyligini o‘rganish, monitoringini yuritish va sifatli foydalanishga topshirilishini tashkil qilish.		
27.	**Ijtimoiy soha ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uylarda**: tom (cherdak) qismi qulflanganligini, chiqindi buyumlari, tez yonuvchi va portlovchi vositalarning mavjud emasligini o‘rganish; is gazi va gaz-havo aralashmasi chaqnashi bilan bog‘liq vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni doimiy tashkil qilib borish; dudbo‘ron va ventilyatsiya tizimlari belgilangan talablarga javob berishini monitoring qilib borish va zarur choralar ko‘rish.	mavsum davomida	Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, “Hududgaz Xorazm” GTF Gaz ta’minoti bo‘limi Toshkent tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi
28.	**Tuman ishchi guruhi shtabi** tomonidan 2024/2025 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning holati yuzasidan **tahliliy ma’lumotlarni viloyat ishchi guruhi shtabiga** taqdim etib borish.	har hafta yakuni bilan	Tuman hokimining o‘rinbosari S.mirsagatov
29.	Iqtisodiyot tarmoqlari va	doimiy	Tuman hokimligi axborot

	ijtimoiy sohani kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning holati va natijalarini, shu jumladan ushbu jarayonlarda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari faoliyatini **ommaviy axborot vositalarida** keng yoritib borish.	ravishda	xizmati (Ismailova)

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Toshkent tumanida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash, aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha dolzarb muammolarni hal etish ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha

TUMAN ISHCHI GURUHINING TARKIBI

T/r	F.I.Sh.		Lavozimi
1.	S.Ergashev	–	Tuman hokimi, *tuman ishchi guruhining rahbari*
2.	R.Rixsiev	–	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, *tuman ishchi guruhi rahbarining o‘rinbosari*
3.	S.Mirsagatov	–	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, *tuman ishchi guruhi rahbarining o‘rinbosari*
4.	I.Saydikarimov	–	Tuman hokimining ijtimoiy masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, *tuman ishchi guruhi rahbarining o‘rinbosari*
5.	M.Abdullaev	–	O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi boshlig‘i
6.	B.Abduraxmonov	–	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
7.	N.Bazarbaev	–	Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i

8.	Muxamadjonov	–	Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
9.	A.Atajanov	–	AT “Xalq bank” Yangibozor Standart BXM boshlig‘i
10.	X.Asadov	–	Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
11.	N.Ubaydullaeva	–	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
12.		–	Tuman madaniyat bo‘limi boshlig‘i
13.	D.Muxamedov	–	Tuman kambag‘allikni qisqrtirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i
14.	B.Eshnazarov	–	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi tumani bo‘limi
15.	Mirzaaxmedov	–	Gaz ta’minoti bo‘limi boshlig‘i
16.	E.Usmonxshjaev	–	Tuman elektr ta’minoti rahbari
17.	Xikmatov D	–	“Musaffo obi xayot” MChJ rahbari
18.	N.Niyazov	–	“Suv ta’minoti” tuman filiali rahbari
19.	B.Davlatov	–	Tuman hokimligining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha bosh mutaxassisi, *tuman ishchi guruhining kotibi*
20.	J.Berdiev	–	Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi bosh mutaxassisi, *tuman ishchi guruhining kotibi yordamchisi*
21.	A.Ismoilov	–	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi ekspluatatsiya boshlig‘i, *tuman ishchi guruhining kotibi yordamchisi*

Toshkent tumanida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini kuz-qish davriga tayyorlash uchun yo‘naltiriladigan mablag‘lar va ularning manbalari

T/r	Yo‘nalishlar nomi	Jami talab etiladigan mablag‘ *(mln so‘m)*	*shundan:*			
			respublika byudjeti mablag‘lari	**mahalliy byudjet va uning qo‘shimcha manbalari mablag‘lari**	**tashkilotlar va aholi mablag‘lari**	**boshqa mablag‘lar**
	Jami	**841**			**300**	**541**
1	Ko‘p kvartirali uy-joy fondini mukammal va joriy ta’mirlash	391				391
2	Ichimlik suvi ta’minoti ob’ektlari hamda texnologik asbob-uskunalarini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash	100			100	
3	Elektr tarmoqlari va qurilmalarini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash (HETK va MET)	300			150	150
4	Gaz ta’minoti ob’ektlari va	50			50	

	qurilmalarini k u z - q i s h davrida barqaror ishlashga tayyorlash					

Suv, elektr va gaz tarmoqlari uchun mablag‘lar viloyat tashkilotlari tomonidan ajratilishi sababli, mablag‘lar miqdori dastlab hisoblar asosida belgilangan

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Toshkent viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash, aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha dolzarb muammolarni hal etish ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha

tuman (shahar)larga biriktirilgan mutasaddi viloyat tashkilotlari rahbarlarining

VAZIFALARI

1) **muntazam ravishda** biriktirilgan tuman (shahar)da iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini kuz-qish mavsumiga tayyorlash, iste’molchilarga elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gaz, ko‘mir mahsulotlari, issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirib boradi va uslubiy-amaliy ko‘maklashadi;

2) **har haftada kamida bir marotaba** biriktirilgan tuman (shahar)da ijtimoiy soha ob’ektlarini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash hamda aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha dolzarb muammolarni hal etish borasidagi ishlarning holatini o‘rganib, aniqlangan kamchiliklarning o‘z vaqtida bartaraf etish choralarini tashkillashtiradi;

3) **muntazam ravishda** biriktirilgan tuman (shahar)da elektr va tabiiy gaz qurilmalarini ta’mirlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash, issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondiga yoqilg‘i resurslarini uzluksiz yetkazib berish choralarini tashkillashtirib boradi;

4) **har haftada kamida bir marotaba** biriktirilgan tuman (shahar)da aholiga, ijtimoiy soha ob’ektlariga, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondiga, boshqa toifadagi iste’molchilarga zarur miqdorlarda energetika resurslarini yetkazib berish bo‘yicha muntazam ravishda “mahallabay” tizimida o‘rganishlar olib borib, ajratilgan resurslarni yetkazib berish bo‘yicha mutasaddilarga takliflar kiritadi;

5) biriktirilgan tuman (shahar)da o‘tgan yildagi kuz-qish mavsumida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda takrorlanmaslik holatlarini oldini olish bo‘yicha manzilli ishlarni tashkillashtirib boradi;

6) biriktirilgan tuman (shahar)da tasdiqlangan parametrlarni bajarishga mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarmagan yoki qoniqarsiz bajargan taqdirda, ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari qo‘llash bo‘yicha viloyat ishchi guruhi rahbariyatiga takliflar kiritib boradi.

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
4-ilova

Toshkent tumanida ichimlik suvi ta’minoti obyektlari va uskunalarini kuz-qish davriga tayyorlash
PARAMETRLARI

T/r	Hududlar nomi	Jami		shu jumladan:			
				Mukammal ta’mirlash		Joriy ta’mirlash	
		Ichimlik suvi tarmoqlari *(km)*	Nasos uskunalari *(dona)*	ichimlik suvi tarmoqlari *(km)*	nasos uskunalari *(dona)*	ichimlik suvi tarmoqlari *(km)*	nasos uskunalari *(dona)*
1	Toshkent tumani	7,7	8	1,5	5	6,2	3

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
5-ilova

Elektr tarmoqlari va qurilmalarini mukammal ta’mirlash
PARAMETRLARI

T/r	Hududlar nomi	Jami		mukammal ta’mirlash			
				yuqori kuchlanishli		past kuchlanishli	
		elektr uzatish tarmoqlari *(km)*	transformator *(birlik)*	elektr uzatish tarmoqlari *(km)*	kuch transformator *(birlik)*	elektr uzatish tarmoqlari *(km)*	transformator punktlari *(birlik)*
1	Toshkent tumani	159,5	60			159,5	60

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
6-ilova

Gaz ta’minoti obyektlari va qurilmalarini kuz-qish davriga tayyorlash PARAMETRLARI

T/r	Hududlar nomi	Jami gaz quvurlarini tiklash - ta’mirlash ishlari (km)	shundan:		Gaz taqsimlash punktlarini mukammal ta’mirlash (dona)	Taqsimlash punktlarni taftish qilish (dona)	Quvurlarni bosim ostida sinash va tozalash (km)	Er osti gaz quvurlari holatini tekshirish (km)	Quvurlarni tartibga keltirish (km)
			mukammal ta’mirlash	rekonstruk-siya qilish					
Jami		**18,3**	**17,9**	**0,36**	**35**	**7 532**	**2 723,5**	**550,9**	**302,0**
1	Toshkent tumani	6,2	6,2		3	1 067	166,1	33,3	24,5

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
7-ilova

Yer uchastkalarida joylashgan aholi xonadonlari gaz ta’minotini 2024-yilda ikki bosqichli tizimga o‘tkazish
MAQSADLI KO‘RSATKIChLARI

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY nomi	Tabiiy gaz bilan gazlashgan hovli uylar soni	Ikki bosqichli tizimga o‘tkaziladigan xonadon soni	Zarur materiallar	
					regulyator, dona	quvurlar, metr
Jami:		**5**	**5 620**	**4 370**	**4 370**	**1 640**
1	**Toshkent tuman**	Kora burik MFY	980	820	820	360
		Kuxinur MFY	2 200	2 000	2 000	600
		Zargar MFY	900	700	700	
		Ok-tosh MFY	800	450	450	360
		Ok-tom MFY	740	400	400	320

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
8-ilova

Aholi iste’molchilari va ijtimoiy soha obyektlariga kuz-qish davri uchun ko‘mir mahsulotlarini yetkazib berish
PARAMETRLARI

tonna

T/r	Hududlar	2024-yil prognoz		shu jumladan:										
				aholi iste’molchilari										
		jami	shundan import	MFY soni	jami	mahalliy	import	jami	to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar orqali			DXSh asosida boshqariladigan ob’ektlar		
									jami	mahalliy	import	jami	mahalliy	import
18	Toshkent tumani	573		3	20	20		507	507	507				

shu jumladan ijtimoiy sohalar bo‘yicha,

T/r	Hududlar nomi	Byudjet tashkilotlari		shu jumladan:											
				Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari			Sog‘liqni saqlash tashkilotlari		Madaniyat vazirligi tashkilotlari		Sport vazirligi tashkilotlari		Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashkilotlari	
		jami talab	shundan import	soni	jami talab	shundan import	jami talab	shundan import	jami talab	shundan import	jami talab	shundan import	jami talab	shundan import
1	Toshke	50		12	50		-							

	nt tuma ni	7			7									

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
9-ilova

Ijtimoiy soha obyektlarini mukammal va joriy ta’mirlash
PARAMETRLARI

T/r	**Hududlar nomi**	**Jami ijtimoiy soha ob’ektlari** *(birlik)*	**Mukammal ta’mirlash**		**Joriy ta’mirlash**				
			"Muruvvat" uylari	**oliy ta’lim muassasalari**	**maktablar**	**bolalar uylari va maktab-internatlar**	**maktabgacha ta’lim muassasalari**	**shifoxona va poliklinikalar**	**oliy ta’lim muassasalari**
1	Toshkent tumani	4			2		2		

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
10-ilova

Toshkent viloyati iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari, mahallalardagi yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash, aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha dolzarb muammolarni hal etish ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha tuman (shahar)larga biriktirilgan mutasaddi viloyat tashkilotlari rahbarlarining

RO‘YXATI

T/R	Hududlar nomi	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Lavozimi
1	Toshkent tumani	Muxamedov Jamshid Djangirovich	“Hududgaz Toshkent” GTF direktori

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
252-10-212-Q/24-son qaroriga
11-ilova

Ko‘p kvartirali uy-joy fondini mukammal va joriy ta’mirlash
PARAMETRLARI

T/R	Hududlar nomi	Jami ta’mirtalab uylar soni	Talab etiladigan mablag‘ (mln.so‘m)	shu jumladan:								
				Tom qismini ta’mirlanadigan uylar soni *(dona)*	Kirish yo‘laklarini ta’mirlash (pod’ezd) *(yo‘laklar soni)*	Kodli qulfli temir eshiklar o‘rnatish (birlik)	Framuga oynalarni o‘rnatish *(kv.m)*	Elektor taqsimlovchi shitlarni ta’mirlash *(birlik)*	Erto‘la qismidagi muhandislik-kommunikatsiya-larni ta’mirlash *(uylar soni)*	Uy ichidagi muhandislik tarmoqlarini ta’mirlash *(uylar soni)*	Fasadni ta’mirlash *(uylar soni)*	Energiya tejamkor sensorlampalar o‘rnatish *(birlik)*
1	Toshkent tumani	2	391	2	2	1		2			2	8